



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети


1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra‘no Maxkamova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Dilrabo Babajanova XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
3. Jaxongir Inayatov MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
4. Nurbek Matyakubov METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
5. Nodira Radjabova “BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
7. Sevara Yusupova O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
8. Гулчехра Абдулхай ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
9. Наргиза Каримова ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
10. Erkinjon Kenjayev XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
11. Шоҳида Давурова ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ХУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74



Nodira Mehmonovna Radjabova,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail:rajabovanodira33@gmail.com

“BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI

For citation: Nodira M. Radjabova. BUKHARA –STYLE AND MAVRIGI PERFORMANCE: DEVELOPMENT, PERFORMANCE AND MASTERY OF PERFORMERS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401576>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Buxoro amirligida vujudga kelgan saroy sozandachilik san'ati, mustaqillik yillarida uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, “Buxorcha” turkumidagi kuy va qo'shiqlarning xalq orasida keng tarqalishi, o'ziga xos tarzda ijro etilishi, “Buxorcha” kuy va qo'shiqlarni maromiga yetkazib ijro etgan mashhur sozandalar, folklor etnografik jamoalari haqida ma'umotlar keltirilgan. Sozanda san'atining o'ziga xos xususiyatlari, ustoz-shogird an'analari, shogirdlarning sozandachilik san'atini namoyon qilishdagi mahorati masalalari ham nazardan chetda qolmagan. Shuningdek, mustaqillik davrida ushbu san'at turining targ'ibotida hissa qo'shgan mashhur san'atkorlar ijodiy faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: “Buxorcha”, raqs, ashula, ayollar dastasi, zang, to'y, ma'raka, qayroq, rubob, dutor, folklor etnografik ansambllar, To'hfaxon, “Mavrigi”, lapar, o'lan, festival, lazgi, “Shahd”, “Chorzarb”, “Shikan-shikan”.

Раджабова Ноди́ра Мехмоновна,
Доктор философии (PhD) по истории.
Независимый исследователь БухГУ
rajabovanodira33@gmail.com

«БУХОРЧА» И «МАВРИГИХОНЛИК» ВОЗВЫШЕНИЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о придворном искусстве созанда (музыкант), возникшем в Бухарском эмирате, повлиявшем на его развитие в годы независимости, популярных музыкантах, которые широко исполняли песни и песнопения цикла “Бухорча” в народе, выступали в уникальной манере, исполняли песни и попевки “Бухорча” с ритмом, народные этнографические сообщества. Не были обойдены вниманием и уникальные особенности искусства созанда, традиция "мастер-ученик" и навыки учеников в демонстрации искусства созанда на инструментах. В нем также содержится ценная

информация о творческой деятельности известных музыкантов, которые внесли свой вклад в популяризацию этого вида искусства в период независимости.

Ключевые слова: "Бухорча", танец, пение, женский букет, свадьба, марака, кайрак, рубоб, дутор, фольклорно-этнографические ансамбли, Тофтахан, "Мавриги", лапар, улан, фестиваль, лазги, "Шахд", "Чорзарб", "Шикан-шикан".

Nodira M. Radjabova,

Doctor of Philosophy (PhD) in History,
Independent researcher at Bukhara State University
rajabovanodira33@gmail.com

BUKHARA –STYLE AND MAVRIGI PERFORMANCE: DEVELOPMENT, PERFORMANCE AND MASTERY OF PERFORMERS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article provides information about the court instrumental music art that emerged in the Bukhara Emirate, its development during the years of independence, and the widespread popularity of the "Bukharcha" series of melodies and songs among the people, as well as their unique styles of performance. It also highlights renowned instrumentalists who skillfully performed "Bukharcha" melodies and songs, along with folklore-ethnographic ensembles. The distinctive features of instrumental performance art, the master-apprentice tradition, and the skills of apprentices in demonstrating this art are also discussed. In addition, valuable information is presented about the creative activities of famous artists who contributed to the promotion of this art form during the independence period.

Index Terms: "Bukharcha," dance, song, women's ensemble, percussion (zang), wedding, ceremony, qayroq, rubab, dutar, folklore-ethnographic ensembles, To'hfaxon, "Mavrigi," lapar, o'lan, festival, lazgi, "Shahd," "Chorzarb," "Shikan-shikan."

Dolzarbligi:

Mustaqillik yillarida "Buxorcha"xonlik va "Mavrigi"xonlik san'ati milliy marosimlarga, xususan, to'y-hashamlar va boshqa oilaviy marosimlarga bog'langan edi. Ushbu turkum ijrosida asosan xonadon ichkarisida bo'ladigan tantanalarda ayol sozandalar "Buxorcha"xonlar, tashqari hovlida esa, erkaklar "Mavrigi"xonlar xizmat qilganlar. Bizning davrimizda esa, "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari barcha ochiq sahnalarda, to'y-hashamlarda, viloyat va Respublika miqyosidagi umumxalq tadbirlarida va ommaviy sayllarda keng namoyish etilmoqda. Ushbu turkum qo'shiqlarini xalq e'tiboriga namoyish etishdan maqsad, har bir shaxsni estetik ruhda tarbiyalash, xususan, yoshlar tarbiyasini amalga oshirishning chuqur imkoniyati mavjudligidir. Zero, "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari Vatanga, xalqqa, yorga sadoqat, va'daga-vafo, sabr-matonat, jasurlik va qatiyatlilik tuyg'ulari baland ruhda tarannum etiladi. Bundan tashqari, ularda axloq-odob, ibo-hayo, muloyim mulohazayu noziktablik xislatlari ham chuqur ifodasini topgandir.

Ko'hna va boqiy Buxoroi Sharif Shashmaqom, shuningdek, shu aziz yurt nomini ulug'lovchi "Buxorcha" va "Mavrigi" singari ashula va raqslardan tarkib topgan o'lmas, nodir musiqiy turkumlarning vatani sifatida ham dunyoda dong taratgan.

Ushbu turkum qo'shiqlarning evolyutsion rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, quyidagi tarixiy asoslarga guvoh bo'lamiz: "Buxorcha" taronalari asosan buxoroliklar orasida vujudga kelib uzoq asrlar davomida ijro etilib kelgan qo'shiqlar turkumi sanalsa, "Mavrigi" turkumi migratsion qo'shiq va raqslardan tarkib topgan go'zal musiqiy san'at sifatida buxoroliklarning ijrochilik mahorati va poetik san'atkorligi tufayli sayqal topgan folklor asarlaridir.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mazkur maqolani yozishda tarixiy xronologik, izchillik, obyektivlik, sivilizatsion yondashuv, qiyosiy tahlil, tarixiylik va zamonaviylik metod va usullaridan foydalanildi.

O'zbek musiqa folklori – kuy, qo'shiq va raqs san'ati qadimiy tarixga ega bo'lib, u mehnatkashlarning urf-odatlarini, orzu-umidlari hamda quvonch-u tashvishlarini ifoda etuvchi musiqiy janrdir. Respublikada milliy musiqa folklori janrini rivojlantirishda mashhur tadqiqotchilar A.Eyxorn, V.Uspenskiy, Ye. Romanovskaya, N.Mironov, I.Akbarov, F.Karomatov, M. Ahmedov, Yunus Rajabiy, R. Abdullayev, S.Vohidov, K.Olimboyeva singarilar munosib hissa qo'shdilar. Ular o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab Markaziy Osiyo Respublikalari bo'ylab turli ilmiy etnografik ekspeditsiyalar uyushtirib, xalqning qadimiy folklor kuy-qo'shiqlarini notalashtirishga erishdilar. Buning mahsuli o'laroq, N.Mironovning “Музыка узбеков” (“O'zbeklar musiqasi” Samarqand, 1928) “O'zbek xalq qo'shiqlari” (Tuzuvchi – Ye.Romanovskaya, T., 1939), Ye.Romanovskayaning “Статьи и доклады” Запись музыкального фольклора (Maqola va maruzalar), (Musiqqa folklori yozuvi) T.,1957, “Музыкальная фольклористика в Узбекистане” O'zbekistonda musiqa folklorshunosligi, (Tuzuvchi. A.Эйхорн T., 1963), F. Karomatov, M. Ashrafiy, Yunus Rajabiyning “Xalq qo'shiqlari”, (T., 1969) singari milliy musiqa folkloriga bag'ishlangan qator asarlari yaratildi.

Mazkur lapar va o'lanchilik an'analarini tiklash borasida istiqloq yillarida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi va Ohangaron o'lanchiligi qayta tiklandi[1]. Jumladan, xalqimizning musiqiy merosini keng miqyosda o'rganish va targ'ib etish maqsadida maxsus “Xalq ijodiyoti poyezdi” tashkil etildi. Bu ijodiy jamoa 2006-yil Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlariga[2], 2007-yil Farg'ona vodiysi viloyatlariga[3], 2008-yil 28-may - 6-iyun kunlari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga[4], 2009-yil 28-aprel - 7-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlariga tashrif buyurdi[5]. Bu tadbir bir tomondan xalqqa madaniy hordiq va yaxshi kayfiyat ulashsa, ikkinchi tomondan jamoalar O'zbekistonning turli burchaklarida bo'lib, o'z repertuarlarini yangi-yangi termalar bilan boyitish va xalqning ichiga yanada chuqurroq kirib borish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi tomonidan bir qator kitoblar nashr etildi[6]. Shuningdek, markazning “Oltin meros” xalqaro jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tkazayotgan ko'plab tadbirlari o'zbek xalqi musiqiy merosining ertangi kelajagiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2005-yil Toshkentda[7], 2007-yil aprel oyida Namanganda[8], 2009-yil 12-avgustda Qarshi shahrida[9] “Lapar va o'lan ijrochilari”ning an'anaviy ko'rik festivallari o'tkazildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda Respublikamizning turli hududlarida yashayotgan xalqlarning o'ziga xos vokal kuy va qo'shiqlari ham to'planib nashr etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi “Fan” nashriyoti tomonidan 2005-yilda chop etilgan folklorshunos olimlar O.Safarov, F.To'rayev va bastakor O.Atoyevning “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari kitobi bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, musiqashunos R.Abdullayev, mohir sozanda – pedagoglar G'. Qo'chqorov va O'.Toshmatovlar tomonidan “O'zbek folklor qo'shiqlari” kitobining nashr etilgani quvonarli holdir. Xullas, ayni paytgacha Respublika musiqa tadqiqotchilari tomonidan to'plangan o'zbek musiqasi folklori qo'shiqlarining salmog'i juda balanddir.

Shuningdek, tojikistonlik olimlar Nozim Nurjonov, Shoxnazar Sohibov, Zoya Tojikovalar ham “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari tadqiq qilishda Respublikadagi olimlari bilan birga o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirishgan edilar. Ushbu mualliflar mazkur turkumlardan namunalar, kichik parchalar to'plab nashr ettirdilar[10].

Tadqiqot natijalari:

Ma'lumki, uzoq yillar davomida “Buxorcha” va “Mavrigi” qo'shiqlariga xonandalar tomonidan ikkalasi ham bir xil turkum sifatida qaralardi, qo'shiqlarning qay biri “Buxorcha”, qay biri “Mavrigi” ekanligi farqlanmas edi. O.Safarov, F.To'rayev, O.Atoyevlarning ““Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari” kitobida qo'shiqlarning evolyutsion rivojlanishi, ijro uslublari shuningdek, ularning o'ziga xoslik tomonlarini tahlil etib, ayni paytgacha Buxoro san'atkorlari tomonidan aralash tarzda ijro etib kelinayotgan ushbu qo'shiqlarni differentsiya, ya'ni tasnif qilishga erishdilar.

Shunday qilib, mazkur to'plamdan “Buxorcha” turkumiga mansub bo'lgan 37 ta qo'shiq, “Mavrigi” turkumiga daxldor 43 ta qo'shiq joy oldi. Bundan tashqari “Buxorcha”larga taaluqli “To'y marosim” qo'shiqlari – 7 ta, “hazil-mutoyiba” qo'shiqlarining 7 tasi, “Mavrigi” turkumiga

kiritilganligini ko‘rish mumkin[11]. Jami, “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumi tarkibidan jami 94 folklor qo‘shig‘i joy olgan, eng muhimi mualliflar qo‘shiqlarning ohang tuzilishi, lad xususiyatlari va metro-ritmik usullarini nazariy tarzda tahlil qilganliklaridir. Gap shundaki, mualliflar “Buxorcha”larni tadqiq qilganda, uni uch paytga (1-,2-,3-payt), “Mavrigi”larni o‘rganganlarida esa “Shahd”, “Chorzarb”, “Shikan-shikan” singari qismlarga bo‘lib ko‘rsatganlar[11].

Mustaqillik yillarida sozanda san‘ati va “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumidagi qo‘shiqlar targ‘ibotchisi, Buxoro musiqiy folklori bilimdoni, “sozanda”* sanatining yirik vakili, nomdor sanatkor To‘hfaxon (Yafo) Pinxasova

nomi bilan bog‘liqdir. U 1928-yilda Buxoro shahrida o‘qituvchi oilasida dunyoga kelgan.

O‘n besh yoshidan “sozanda” lik sanati bilan shug‘ullanib mashhur sanatkor darajasiga yetishadi. Uning ustozlari Buxoroning nomdor sozandalari Tuvai Karkigi (Tuvai urus), Mixalxonim va Noshpo‘ttixonimdir.

To‘hfaxon yoshlik davrini shunday xotirlaydi: 1932-1933-yillarda nafaqat Buxoro, balki butun O‘rta Osiyo xalqlari orasida ocharchilik, qahatchilik bilan bir qatorda, “tilla olish” avj olgan edi. Bu davrda Buxoroda xonavayron bo‘lmagan yoki oila boshlig‘idan ajralmagan bironta xonadonni topish amri mahol edi. Odamlardan “tilla olish” ishi Moskva buyrug‘i asosida amalga oshirilayotgan edi.

Bunday musibat o‘rtahol oila bo‘lgan bizning xonadonimizga ham yetib keldi. Avval pochcham, Hananiyo, so‘ng dadamni KGB (Davlat xavfsizlik komiteti)ga olib ketdilar. Hovlimizni antar-to‘ntar qilib, butunlay nochor ahvolga solib qo‘ydilar. Nafaqat tilla, balki qo‘lga ilinadigan biron narsa topa olmaganlaridan so‘ng, o‘n yetti kundan keyin ko‘p azob oqibatlar evaziga otamni qamoqdan ozod qildilar. Bizning yoshlik yillarimiz ana shunday qiyinchiliklar bilan o‘tgan,” – deb so‘zini yakunladi To‘hfa opa[12].

Oilasining moddiy nochorligi hamda onasi vafotidan so‘ng ukalariga qaraydigan kishi bo‘lmaganligi tufayli To‘hfaxon 1945-yilda oliygohning 2-kursidan o‘qishni tashlaydi va o‘sha vaqtda sozanda san‘ati bilan mashg‘ul bo‘lgan Noshpo‘ttixon, Mixal Karkigi, Guburxon, Chervonxon va Asyaxon Ilyasovalar bilan xalqimizning to‘y-marosim, bazmlarida xizmatga chiqadi. Bu guruhda 5 ta ayol doiradastlik qilgan. To‘hfaxon shu insonlar izidan borib, sozanda san‘ati sirlarini egallaydi, u marakalarda raqqosa sifatida ishtirok eta boshlaydi.

To‘hfaxon ustozlaridan nafaqat xonandalik va raqs san‘ati, balki Buxoro folklor qo‘shiqlarining nog‘ora, ravona, chillaki, safolak, javoni, miyonxona, furovard singari doira usullarini ham mukammal o‘rganadi. O‘tmishda (hozirda ham) har bir san‘atkor yetuk ijrochi bo‘lishi uchun xalq xizmatida bo‘lib, to‘y marakalariga borib el nazaridan o‘tishi lozim edi.

To‘hfaxon ham ”sozanda” sifatida xalqqa xizmat qilib, katta obro‘-etibor qozongandi. Xalq unga azbaroyi yaxshi ko‘rganidan “To‘hfaxon” taxallusini berdi, ya’ni Ollohdan tuhfa ma’nosini anglatadi[13]. Uning to‘ydagi xizmati maxsus dastur asosida ikki qism va to‘rt paytdan tuzilgan quyidagi shaklda shinavandalarga namoyish etilgan:

Birinchi qism:

I payt: Birinchi shogird raqqosaning chiqishi 30-40 daqiqadan iborat.

II payt: Ustozning chiqishi - “Qayroq o‘yini” (“Qayroqbozi”) – 2 soat davom etadi. Shu bilan birinchi qism yakun topadi.

So‘ngra mehmonlar oldiga dasturxon yozib, taom tortadilar. Bu marosim bir soat davom etadi. Uy egalari To‘hfaxon buyrug‘iga asosan taomni mehmonlarga tortishgan. To‘hfaxon esa o‘zi tuzgan ijodiy dasturga asoslangan[14]. Keyin bazmning II qismi boshlanadi:

III payt: Ikkinchi shogird raqqosaning chiqishi 30-40 minutdan iborat.

IV payt: Ustozning chiqishi - “Zangbozi” (“Zangbozlik”) turkumi, 2 soat davom etadi. Mazkur chiqishlarning barchasida 4-5 doiradast ayol doirada usul berib turadi. Tadbir ishtirokchilari ham shu dasturga amal qilishgan.

To‘hfa Pinxasova 1960-yildan boshlab o‘z jamoasi bilan Buxoro viloyat musiqali drama teatrida ishlay boshlaydi. U bu yerda konsert ijrochiligini yo‘lga qo‘yib ijodiy dastasini “Nozanin” deb nomladi va mazkur jamoa bilan viloyat san‘at shinavandalariga konsertlar namoyish etib, madaniy xizmat ko‘rsata boshladi. “Nozanin” ashula va raqs ansambli qisqa muddatda el nazariga

tushib mashhur bo‘lib ketdi. Ansamblning muvaffaqiyati Respublika radio va televidiniyesi orqali maxsus ko‘rsatuvlar orqali namoyish qilina boshlandi. Mazkur jamoa nafaqat viloyat, balki Toshkentda o‘tkaziladigan umumxalq bayrami tadbirlarida, xalqaro festivallarda ham ishtirok eta boshladi. Tojikistonlik san‘atshunos olimi Zoya Tojikova tashabbusi bilan “Nozanin” ansambli faoliyati haqida hujjatli film yaratilib, Dushanbe, Toshkent va hatto Moskva televideniyesi orqali namoyish etildi. To‘hfa Pinxasova mazkur ijodiy muvaffaqiyatlarni Oliyaxon Hasanova, Mehdi Ibodov, Berta Mullaqandova, To‘va Benyaminova (Gavriel Benyaminovni qizi), Xanoniyon Yakubova, Riva Taxalova, Tamara Taxalova, Tamara Qandova (shogirdi), Farida Nesimova (shogirdi), Baxmalxon (Berta Pinxasova), Mira Xaimova, Sanobar Sultonova (o‘zbek), Muhabbat Qodirova, Matlab opa Rajabova singari mahoratli shogirdlari bilan qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qo‘lga kiritadi. Sozandalar: Ari Boboxonov (rubob), Yura Babaxanov (rubob), Dovud Xiyayev (rubob), Nisim Boruxov (rubob), Xiyo Maxsumov (rubob), Isroel Maxsumov (doira), Husen Kazimov (doira), Sayfullo Abdullayev (akkordeon)larning ham sozanda sifatidagi xizmatlari beqiyosdir [15].

Folklor etnografik jamoaning el suygan yana bir a‘zosi – Mehdi Ibodov bo‘lib, u “Buxoro Mavrigi”larini maromiga yetkazib kuylagan hofiz-Mavrigixondir. Mehdi Ibodov katta diapazonli ovoz sohibi bo‘lib, har bir qo‘shiqni o‘ziga xos professional tarzda ijro etgan. Xalq uni juda katta qiziqish bilan tinglagan. Muxlislari faqat buxoroliklar emas, Respublika, qolaversa, xalqaro miqyosidagi festivallar ishtirokchisi. Viloyatdagi bazm, to‘y-marosimlar, bayram tantanalari sayllar ham Mehdi Ibodovsiz o‘tmagan. Albatta, uning ijrosidagi Buxoro Mavrigilari, xalq laparlarini eshitish uchun xalq tomonidan talab bo‘lgan. U esa har safar o‘ziga xos chiroyli, professional ijrolari bilan tomoshabinlarni xushnud etgan. Mehdi Ibodov 1934-yilda Buxoroda tug‘ilgan, ish faoliyatini haydovchilikdan boshlagan, keyinchalik choyxonachilik ham qilgan. Taqdir taqozosi bilan 1992-yildan san‘at sohasiga kirib keladi. U To‘hfaxon boshchiligidagi “Nozanin” ansambli bilan xalqning to‘y, marosim, bayramlarida ishtirok etib, Buxoro mavrigilari, xalq laparlari, doiranavozlik, shuningdek Hofiz Sheroziy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy g‘azallarini maromiga yetkazib, ijro etish orqali xalq qalbiga kirib borgan. Ayniqsa, Sheroziy qalamiga mansub quyidagi misralarni xalq orasida ko‘p aytgan:

Gul ajabho binki man
 Dar kori yak zan didayam,
 Dar daruni g‘uncha man
 Daryoyi ummon didayam.
 Xastu jonu xoliqo
 Ki in gul ajabho qudratash,
 Dil zi g‘uncha ilm chun
 Daryoyi iymon didayam.
 Kuhi qofe didayam
 Dar arzanash pinhon shudam,
 Xonaro dar xoni sohib
 Chu zindon didayam.
 Nutfatatro arzani dun
 Jismi xudro quhi qof,
 Xonem xud dil bidon
 Monandi Zindon didayam.....

Tarjimasi:

Gul ajabdur ko‘rki men
 Bir ayol ishida ko‘rdim,
 G‘unchaning ichida men
 Daryoyi ummonni ko‘rdim.
 Parvardigordir xoliqo
 Bu gul ajab qudratidur,
 G‘unchaning ilmida men

Daryoyi ummonni koʻrdim.
 Koʻhi Qofni koʻrdim-u
 Gardida men pinhonman,
 Koʻnglimni sohib uyida
 Misli zindonday koʻrdim.
 Yaralishing oʻtkinchi dunyo
 Oʻz tanangdur Koʻhi qof,
 Koʻngil uyimni bilsang
 Zidon Monandni koʻrdim.

“Nozanin” ansambli jamoasi va uning badiiy rahbari Toʻhfaxon Pinxasovaning xalq oldidagi xizmatlari butun jahon Tinchlik fondining (СФМ) “Oltin medali” va Faxriy yorligʻi hamda “Oʻzbekiston mustaqilligi” medali bilan taqdirlangan[16]. Toʻhfaxon va shogirdlari turi filmlarda ham rollarni ijro etishgan. “Nozanin” ansambli ishtirok etgan filmlar roʻyxati:

- “Волшебное яблоко” (“Gʻaroyib olma”), badiiy film. “Казахфильм”, 1986.
- “Последняя ночь Шехерезады” (“Shahrizodaning soʻnggi kechasi”), 3 qismli badiiy film. “Тожикифильм”, 1987.
- “Моя любимая Сирия” (“Mening sevimli Suriyam”), badiiy film, “Тожикифильм”, 1989.
- “Вот опять про Насретдина” (“Yana Nasriddin afandi haqida”), badiiy film. “Тожикифильм”, 1990.
- “Священная Бухара” (“Qutlugʻ Buxoro”), badiiy film. “Тожикифильм”, 1991
- “Сказка по Бухарски” (“Buxorocho ertak”), “Поёт Тухфaxon” (“Toʻhfaxon kuylaydi”) nomli hujjatli film. “Ўзбекфильм”, 1988;
- “Buxoroyi Sharif”, telefilm. “Ўзбекфильм”, 1992 va boshqalar[17].

Toʻhfaxon Pinxasova milliy sanʼatimiz taraqqiyoti uchun cheksiz zahmatlar chekib, uning targʻiboti uchun katta hissa qoʻshgan sanʼatkorlardandir.

Bugungi kunda Toʻhfa Pinxasova izidan borgan ukasi sanʼatshunoslik fanlari doktori, professor Sulaymon Taxalov, oʻgʻli mohir sozanda Ilyos Rahimov Toshkent davlat konservatoriyasida uzoq yillar dars berdilar. Qizi Gulmira Rahimova, kelini Tamara Taxolova va bir qancha nevara hamda evaralari bugungi kunda sanʼat sohasida faoliyat yuritmoqda.

“Mavrigi”xonlik maktabining yirik vakillaridan biri, Buxoro hazil qoʻshiqchisi mohir ijrochisi “Nozanin” ansamblining aʼzosi Mehdi Ibodov 1934-yilda Buxoroning Havzi Boboniyoz guzarida ishchi oilasida tugʻilgan. Kichkina Mehdi asosan onasi tarbiyasida boʻlib, yoshligidanoq Hofiz, Saʼdiy, Bedil, Jomiy, Navoiy, Mashrab singari mumtoz shoirlarning sheʼrlarini yod olib, turli xalq marosim va tadbirlarida mahorat bilan oʻqib yurgan.

Maʼlumki, Buxoroning musiqa folklori alohida shakl va tuzilishga ega boʻlib, uning ijrosi ham oʻziga xos tarzda amalga oshiriladi. Xalqona ashulalar, raqslardan tarkib topgan noyob musiqiy turkumlardan biri “Mavrigi” lar oʻtmishda toʻrt nafar doiradast hofiz va bir raqqos tomonidan ijro etilgan. Bu sanʼatkorlar, asosan, xalq marosimlarida xizmat qilib, oqshomdan tonggacha baʼzida “Chorzону” (oyoqlarni bukib), baʼzida “Duzону” (ikki tizzada turib) toʻrtta doirada tez va turli shoʻx usullar berib qoʻshiq aytar, raqqos esa ayollar kiyimida oʻyinga tushgan.

Oʻtmishda “Buxorcha” va “Mavrigi” singari musiqiy turkumlarning oʻziga xos uslubda kuylaydigan usta ijrochilari boʻlgan. Davrimizning mashhur mavrigixonlaridan Ali Rizo, Kozim Rahmon, Haydar Shodi, Ibrohim Qosimlar Mehdi Ibodovga ustozlik qildilar. Yosh Mehdi “Mavrigi” turkumidagi barcha taronalarni chuqur oʻrgandi. Uning katta tembrli “gulligi” ovozi oʻz xususiyatiga koʻra jarangdor “bariton” turiga mansub boʻlgan[14]. Lekin u ashula aytayotganda nafas olishning oʻziga xos uslublaridan foydalanar, yaʼni uning ovozi “gulligi” boʻlib, tomoqdan chiqsa-da, u nafasni koʻp hollarda qorindan chiqarib, ovoz tembrini yanada kuchaytirishga erishgan[18].

Mehdi Ibodov qoʻshiq mazmuniga qarab, raqs harakatlari va unga milliy ruh berish bilan ijro etish orqali xalq qalbidan joy olgan. Uning raqsga tushib ashula aytishi shunchalik jozibali va dil tortar ediki, tomoshabinlarning oʻzi ham bu jarayonda bevosita ishtirokchiga aylanib qolganligini sezmay qolardi[19]. U, xususan, Buxoro xalq hazil qoʻshiqchilarini katta zavq va mahorat

bilan ijro etgan. Jumladan, “Ushtur va chanam dar balandi-ye”, “Bale murg’ak”, “Dupar gazit”, “Ne-ne dilakum bobo” singari tojikcha, “Akamana donasho’rak”, “Jon burgam, azamat burgam” kabi o’zbekcha hazil qo’shiqlar bunga misol bo’la oladi.

Mehdi Ibodov mumtoz she’riyat, xususan, fors adabiyotidan xabardor san’atkor sifatida Sa’diy, Jomiy, Foni, Bedil, Kamol Xo’jandiy singari klassik shoirlarning ko’pgina g’azallarini yoddan aytgan[19]. Xalqning to’y, maraka marosimlarida ham shinavandalar talabiga asosan, ayniqsa, fors adabiyotiga mansub g’azallarni aytgan. U “Nozanin” va “Mohi sitora” folklor etnografik ansamblida yetakchi xonanda sifatida ijodiy faoliyatini amalga oshirgan. Keyinchalik esa erkaklardan tarkib topgan “Mavrigi” etnografik ansamblini tashkil etadi[20].

Mehdi Ibodov ko’pgina nufuzli ko’rik-tanlov va festivallar ishtirokchisidir. 1962- yilda Moskvada bo’lib o’tgan folklor dastalarining xalqaro festivali, 1968 -yili Leningradda o’tkazilgan xalqaro yoshlar festivali, shuningdek, Respublika miqyosida bo’lib o’tgan qator tadbirlarda o’z san’atini namoyish etib, alohida obro’-e’tiborga sazovor bo’lgan. Mehdi Ibodov nafaqat sahna, balki ekranda ham o’z isde’dodini namoyon etgan. Uning “Buxoro ertaklari” (“O’zbekfilm”), “Shahrizodaning oxirgi kechasi” (“Tojikfilm”), “Buxoroi sharif” (“O’zbekfilm”) va “Yana Nasriddin haqida” (“Tojikfilm”) singari hujjatli va badiiy filmlarda yaratgan obrazlari, xususan, “O’zbekfilm” tomonidan suratga olingan “Shaytanat” filmidagi “Zargar” epizodik rolini yuqori saviyada o’ynab, muxlislar e’tirofiga sazovor bo’lgan.

Mehdi Ibodov 1987- yildan umrining oxirigicha (2006) Akademik va xalq badiiy jamoalari (hozirgi O’zbekiston davlat filarmoniyasi) viloyat bo’limida ustoz xonanda sifatida faoliyat ko’rsatib, jamoa tomonidan namoyish etilgan tadbir va ko’rik tanlovlarning barchasida faol qatnashib kelgan. U ko’pgina nufuzli ko’rik tanlovlarning diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Mustaqillik yillarida “Mavrigixon”lik an’anasini davom ettirib kelgan O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar Orif Atoev, Oliyaxon Hasanova, Saodat G’ulomova, xushovoz xonandalar Nishon Otamurodov, Yusuf Shukurov, Shaxlo Sharipova, Ne’mat Imomov, Abdurauf Avezov, Hamid Ashurovlar Mehdi Ibodovning iste’dodli shogirdlari hisoblanadilar.

Xulosa:

Xullas, Mustaqillik yillarida boshqa sohalar singari musiqa va qo’shiqchilik san’ati ham qayta tiklandi va rivojlandi. Ajdodlarimizdan meros bo’lib kelayotgan “Buxorcha” va “Mavrigi” turkum qo’shiqlari xalq og’zaki ijodi mahsuli bo’lmish laparlar, bastakorlik ijodi namunalarini kuylashga e’tibor kuchaydi. Shuningdek, ko’plab mohir xonanda va ijrochilar yetishib chiqdi. To’hfa Pinxasova, Oliyaxon Hasanova, Mehdi Ibodov, Ochil Ibragimov, Xeyo Maksumov, Orif Atoev, Fayzullo To’rayev, Sanoqul Do’stov, Saodat G’ulomova, Ne’matjon Imomov, Yusufjon Shukurov, O’lmas Rasulov kabilar Buxoroda musiqa va qo’shiqchilik san’atining rivoji yo’lida xizmat qilib keldilar.

Iqtiboslar/Сноски/References:

-
- [1] Jo’rayev M., Tohirov O’., Imomnazarova Sh. “Ўлан айтгали келдик”. -Т.:2013 -Б.160;
 [2] Jo’rayev M., Tohirov O’., Imomnazarova Sh. “Ўлан айтгали келдик”. -Т.:2013 -Б.15;
 [3] O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №24. -Toshkent,2007.-Б.14;
 [4] O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №26. -Toshkent, 2008. -Б.28-30;
 [5] O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №20. -Toshkent, 2005. -Б.13-15;
 [6] Қадимий қўшиқлар сеҳри.-Т.:2007.-В.44. Намроқулов Р. Қўшиқ кўнгил мезони. -Т.:2007.-В.84;

[7] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №28. -Toshkent, 2009. - B.34;

[8] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №24. -Toshkent, 2007. - B.29-30;

[9] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi axborotnomasi, №31. – Toshkent, 2013. – B.8;

[10] Radjabova N.M. XIX asr oxiri - XX asr birinchi choragida Buxoroda musiqa va qo‘shiqchilik san’ati tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.- Buxoro-2024.-B.38;

[11] Сафаров О, Атоев О, Тўраев Ф. “Бухорча” ва “Мавриги” тароналари. Тошкент.: “Фан”, 2005. -277 б;

[12] Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар. Тошкент.:“Наврўз”, 2018. -Б.85;

[13] Muallifning muloqot materiallari. Sobiq Nozanin ansambli a’zosi Kazimov Husen bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2024-yil 5-may; Muallifning muloqot materiallari. Mavluda Samandarova bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti.2024-yil 28-mart;

[14] Muallifning muloqot materiallari. Mavluda Samandarova bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti.2024-yil 28-mart;

[15] Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар. Тошкент.:“Наврўз”, 2018. -Б.87; Muallifning muloqot materiallari. Husen Kazimov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti.2024-yil 5-may .

[16] Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар. Тошкент.:“Наврўз”, 2018. -Б.87;

[17] Тўраев Ф. Мутрибот қалбидан учган наволар. Тошкент.:“Наврўз”, 2018. -Б.88;

[18] Muallifning muloqot materiallari. Mavrigixon Rauf Avezov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti . 2024-yil mart;

[19] Muallifning muloqot materiallari. Sobiq Nozanin ansambli a’zosi Kazimov Husen bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2024-yil 5-may;

[20] Muallifning muloqot materiallari. Sobiq Mavrigi ansambli a’zosi Nishonjon Otamurodov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2025-yil 2-dekabr.

* Ijro san’ati bevosita oilaviy marosimlar (Beshik to’yi, hinobandon, sunnat to’yi, nikoh to’yi, sallabandon) bilan bog‘liq bo‘lgan ham xonanda, ham raqqosa sifatida “Buxorcha” va “Mavrigi” qo‘shiqlari ayol ijrochilariga “sozanda” deyiladi. “Sozanda” san’ati ilk bor Buxoro amiri amir Olimxonning onasi Eshon oyim talabiga asosan saroyda ichkari hovlida ayollarning bazm qilishlari uchun ansambl shaklida shakllantirilgan edi. Mazkur janr O‘zbekiston va Tojikistonning Buxoro, Samarqand, Shahrizabz va Dushanbe shaharlarida keng ommalashgan. Kavkazorti hamda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida ularni “sozandar” deb ataydilar.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000